

**Fotima ABDULLAYEVA,**

K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti "Libos dizayni" kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

E-mail: fotima\_asadiy@mail.ru

Tel: +998974079464

**Zuxra UMAROVA,**

K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti "Libos dizayni" kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

E-mail: zuxra.umarova87@mail.ru

Tel.:+998998573357

**Asomiddin RASHIDOV,**

K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute "Libos dizayni" kafedrasi dotsenti

E-mail: asomiddin.rashidov.71@mail.ru

Tel.:+ 998 93 576 07 68

TTESI professori, f.f.n. U.Raxmatullayeva taqrizi asosida

## **ZAMONAVIY MODA TENDENSIYALARINING SOHA DOIRASIDAGI TA'LIM JARAYONLARI MODERNIZATSIYASIDAGI AKTUALLIGI**

Annotatsiya

Maqolada sohaga oid ta'lism jarayonlarida shakllantiriladigan libos kollektiyalarida kostyum loyihalash tendentsiyalarining dolzarbliji, ularning shakllanish genezisi, rivojlanish tamoyillari, hamda mazkur tendentsiyalarining moda sanoati doirasidagi amaliy jarayonlarning ilmiy ijodiy aspektlari rivojiga ko'rsatayotgan ta'siri atroflicha tahlil etilgan. Xususan, maqolada tadqiqotching mavzuga doir ilmiy xulosalari o'r'in oлgan va bu borada ta'lism tizimlarida mavjud bo'lgan muammolarning yechimiga oid aniq tassiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Libos loyihalash tendentsiyalar, libos kollektiyalar, bayerlar, merchendayzerlar, moda namoyondalarining libos loyihalash doirasidagi ijodiy kontseptsiyalarining ilmiy – ijodiy aspektlari tahlili, ijodiy kontseptsiyalar.

### **АКТУАЛЬНОСТЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕНДЕНЦИЙ МОДЫ В МОДЕРНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ**

Аннотация

В данной статье рассматриваются актуальные принципы тенденций проектирования костюма в создании коллекций одежды, исполненных студентами в качестве учебных заданий в процессе обучения в специализации "Дизайн одежды", генезисе их формирования и интенсивности развития. Также подробно анализируется влияние данных тенденций на развитие научно-творческих аспектов практических процессов, происходящих в сфере моды. В частности, в статье исследователем приведены научные заключения, касающиеся темы, а также даны рекомендации по решению проблем в системе образования данной сферы.

**Ключевые слова:** Тенденции проектирования костюма, коллекции одежды, байеры, менчендайзеры, анализ научно-творческих аспектов творческих концепций в рамках проектирования костюма представителями сферы моды, творческие концепции.

### **RELEVANCE OF MODERN FASHION TRENDS IN THE MODERNIZATION OF EDUCATIONAL PROCESSES**

Annotation

In this article we will focus on the modern principles of the design trends of the suit to create a clothing collection filled with students as learning tasks in the learning process in the specialization "Design of clothes", the genesis of their formation and intensity of development. Also analyzes in detail the impact of these trends on the development of scientific and creative aspects of the practical processes in the field of fashion. In particular, in the article, the researcher provides a scientific opinion concerning the topic, and also recommendations on problem solving in the educational system of this sector.

**Key words:** Modern fashion trends, designing, modeling. design trends of the suit clothing collection "Design of clothes" scientific and creative aspects of the practical processes in the field of fashion, creative concepts.

**Kirish.** Libos dizayni mutaxassisligi bo'yicha Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tahlil olayotgan talabalarning o'quv topshiriqlari davomida yaratadigan libos kollektiyalarida kostyum loyihalash tendentsiyalarining rivojlanish qonuniyatları, ijodiy va konseptual g'oyalarni amalga tadbiq etish kabi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonlaridagi ma'suliyatlari vazifalarini qamrab oladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tadqiqot ishida zamoniaviy moda tendentsiyalarining soha doirasidagi ta'lism jarayonlari modernizatsiyasiga ko'rsatayotgan ta'sirini aniqlashda N.Uayt, J.Pekardi, A.Chang, K.Persova, K.Blekmen, L.Armstrong, I. de la Fressanj, D.Tomas, A.Dreyk, M.Tangeyt, E.Abroze, H.Farnult, A. Manchinelli, D.Vreeland, G. Coddington, A.Newman, Z.Shariff, K.Cutrone, K.Clements, A.Drake, B.Sjoberg, M.Peterson, Kristin, M. Leloir singari mutaxassislarining ushbu yo'nalishdagi adabiyotlari o'rganildi. Shuningdek, talabalarning o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonlarida e'tiborga olishlari zarur bo'lgan jamiyat a'zolarining kiyinish madaniyati va unda ustuvorlik kasb etib kelayotgan konseptual moda an'analari shakllanishi madaniyatshunoslik, sotsiologiya, madaniy antropologiya, falsafa, moda tanqidchiligi fanlari bo'yicha - A.Gofman [1], R.Bart [2], T.Berdnik [3], Sh.Zeling [4], M.Zirina [5] singari olimlar olib borgan tadqiqotlar asosida o'rganildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma'lumki, hozirgi kunda dunyoning etakchi mutaxassislarining faoliyat doirasida moda tendentsiyalarining aktual yo'nalishlari asosida kollektiyalar yaratish jarayonlarida konseptual loyihalash mexanizmlari – ular ijodiy izlanishlarning asosiy tashkil etuvchisi, hamda loyihalash jarayonlarining aktual qonuniyati sifatida e'tiborli ahamiyat kasb etib kelmoqda. YOsh va mahoratli dizayner mutaxassislar ijodida aktuallik kasb etayotgan ushbu konsepsiylar bo'lg'usi dizayner ya'ni, talabalar ijodiy ishlarida ham kun sayin keng doirada namoyon bo'lib kelmoqda.

Sohaga oid ilmiy va amaliy faoliyatlar davomidagi: "Konseptual loyihalash qonuniyatları - modellashtirishning ilk bosqichi sifatida amalga tadbiq etilishi ko'zda tutilgan g'oyaning rivojlantirilgan va hal qiluvchi ahamiyatga molik jihatlarini shakllantirish yo'nalişlarini ifodalaydi"[6]. Zamonaviy moda tendensiyaları asosida liboslar to'plamlarini loyihalashning konseptual bosqichi – bu g'oyaning talabalar ongida shakllantirilayotgan tizimli bosqichi sifatida ularning o'quv topshiriqlari mobaynida tayyorlaydigan loyihibiy-amaliy vazifa va maqsadlarini aniqlash jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi.

**Tahhil va natijalar.** Moda tendensiyalarini sohaga oid ta'lum jarayonlari modernizatsion mexanizmlarini rivojlantiruvchi tamoyil sifatida tadqiq etish bir qancha ustuvor vazifalarga doir bosqichlarni tashkil etadi. Bu jarayonda professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga modalar dizaynida mavjud bo'lgan kostyum tendensiyaları haqida ilg'or pedagogik vositalar orqali atroficha ma'lumot beriladi. Xususan, unda:

- libos dizayni sohasida mavjud bo'lgan loyihalash tendensiyalarining shakllanishi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Evropa va G'arb davlatlarida hukm surgan iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi taraqqiyot natijasi o'laroq liboslarni ommaviy tarzda ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liqligi va uning ilk belgilari esa XV asr oxiri XVI asr boshlarida Italiya kostyum an'analarini asosida vujudga kelganligi;

- XV-XVIII asrlarga xos bo'lgan Evropa kostyum tendensiyalarini esa o'sha davrlarda ijod qilgan mashhur rangtasvir rassomlari asarlarini tahlil qilish orqali kuzatishlari mumkinligi;

- o'rta asrlar libos tendensiyalarini talabalarining zamonaviy kostyum loyihalash faoliyatlaridagi turli xil murakkab konstruktiv bichimlar, hamda noodatiy, hashamatga boy dekorativ ahamiyatga molik libos elementlaridan o'z o'rni va samarali foydalanish malakasini shakllantirishlari xizmat qilishda katta ahamiyatga ega ekanligi pedagog-o'qituvchi tomonidan tayyorlangan ma'ruzalardagi nazari va amaliy vositalar yordamida yoritiladi.

Shuningdek, semestr davomida o'tiladigan o'quv jarayonlarida libos loyihalash tendensiyalarining keyingi asrlar davomidagi o'zgarish va rivojlanish qonuniyatlarini ham talabalar uchun ta'lum jarayonlarining ilmiy- metodik bazasi doirasidagi shakllantirishlari zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalariga oid mavzular uziyligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi.

Xususan, mazkur jarayonda talabalar:

- XIX asr boshlarida Angliyada moda ixtirochilarini sifatida tan olingen dendilar – o'z liboslari eng e'tiborli darajada ahamiyat beruvchi shaxslardan tashkil topgan ijtimoiy qatlarni vakillari tomonidan moda tendensiyalariga kiritilgan moda tendensiyalarini o'ziga xosliklari;

- mazkur tendensiya doirasida urfda bo'lgan, hamda shu kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan qora, kul rang, jigar rang va oq ranglar gammasisiga ham alohida e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq ekanligiga pedagog tomonidan alohida urg'u beriladi.

Chunki, zamonaviy kostyum tendensiyalarida mazkur ranglar gammasi deyarli har bir mavsum doirasida urfga aylanib, o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotganligi ma'lum. Shu bilan bir qatorda dendilar kiygan liboslari konstruktiv va texnologik jihatdan mukammal, san'at asari darajasida mohirona tayyorlanganligi va erkaklar modasiga oq ko'yak, galstuklar va jiletlarni urfga olib kirganliklari va bu o'z navbatida London shahrining erkaklar modasi poytaxtiga aylanishida katta o'ringa ega bo'lganligi ham talabalar uchun yana bir muhim metodik manba hisoblanadi.

Talabalar o'quv jarayonlari mobaynida malakali pedagoglardan olgan bilimlarining mahsuli bo'lgan ma'lum bir mavzu asosidagi libos kolleksiyalarini yaratish jarayonlarida XIX asr libos tendensiyalarini doirasidagi quyidagi asosiy rivojlanish tamoyillariga alohida ahamiyat qaratishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- mazkur davrlarda evropa davlatlarida jamiyat a'zolari orasida sport turlari bilan shug'ullanishning urfga aylanishi liboslar konstruktiv xususiyatlariga o'z ta'sirini ko'rsatganligi;

- jaket va yubkadan tashkil topgan ayollar kostyum komplektini shakllanishi;

- sport uslubiga xos mazkur libos tendensiyalarining Angliyada vujudga kelganligi, o'sha davrlarda sport uslubiga xos kostyum belgilari sifatida tan olingen kostyum elementlari xozirgi kunda klassik uslub belgilari sifatida zamonaviy moda tendensiyalarida kuzatilayotganligi kabi jihatlar shular jumlasiga kiradi.

O'quv topshiriqlarini bajarishlari davomida talabalar uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmui doirasida ular uchun ahamiyatli bo'lgan moda tendensiyalarini bilan bir qatorda ular liboslarning funksional xususiyatlarini ham e'tibordan ochirmasliklari ham libos dizayni sohasining asosiy talabalaridan hisoblanadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, hozirgi kundagi moda tendensiyalarini talablariga javob beruvchi funksional kostyum namunalaring ilg'orligi birlinchiligi jahon urushi yillarda iste'molchilarning funksional kostyuma bo'lgan talab va istaklari oqibatida XX asrning moda tendensiyalariga doir asosiy shakl va siluetlarni belgilab bergen kostyumlar:

- liboslar uzunligining qisqarishi,

- korsetning iste'moldan chiqishi,

- libos bichimlarida konstruktivalarining soddalashdirilishi,

- harbiy kostyumlardan ilhomlangan holda ayollar liboslarida ham turli xil funksional ahamiyatga ega bo'lgan taqilmalarning urfga kirishi kabi bir qator yangiliklar kiritila boshlanganligi singari libos loyihalashdagi konstruktiv va dekorativ ahamiyatga molik kostyum tendensiyalarini o'z ichiga oladi. Bu jihatlar ham o'quv jarayonlarida talabalar tomonidan yaratiladigan libos namunalaring asosiy talabalaridan kelib chiqib yondoshish lozim bo'lgan vazifalarni qamrab oladi.

Libos dizayni mutaxassisligi bo'yicha faoliyat olib borayotgan pedagog-o'qituvchilar talabalariga XX asrning 90 yillar moda tendensiyalarini haqida ham chuqur bilim va ko'nikmalarini shakllantirishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunga asosiy sabab sifatida mazkur davrlar liboslarining aksariyati o'zida hozirgi kunda ommaviy madaniyat niqobi ostida yuritib kelinayotgan, yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi g'oyalarga asoslangan holda shakllantirilganligini keltirish mumkin. J.Galyano, V.Vestvud, A.Mak-Kuin, V.Vestvud, J.P.Gote singari bir qator libos dizaynerlari kostyum kolleksiyalarida mazkur jihatlarni yaqqol kuzatish mumkin. Bu jarayonlar XX asr moda tendensiyalariga "dekonstruktivizm" yo'naliishi an'analarini doirasida kirib kelgan. Sekin asta mazkur yo'naliş dunyo miqyosidagi dizaynerlar ijodida ham asosiy o'ringa ega bo'la boshlaganligini qayd etish lozim.

Mazkur davrlarning yurtimiz miqyosidagi moda tendensiyalarini haqida talabalar e'tiborlarini qaratishlari lozim bo'lgan jihatlar, 80 yillar oxiri - 90-yillar boshlarida dunyo moda sanoatidagi yangilanishlar yurtimizdagi moda tendensiyalariga ham o'z hukmini o'tkazgan holda yoshlar orasida milliy kostyum an'analarini deyarli unutilishi, erkaklar va ayollar liboslarida milliylik xususiyatlari yo'qolib borishi natijasida, Evropa kostyum tendensiyalarini o'zining yaqqol ustunlik jihatlariga ega bo'lganligi kabi jarayonlarni qamrab oladi. Ushbu davrda yurtimiz Modalar uyi mutaxassislarini tomonidan yaratilgan kolleksiyalarini o'zbek moda

industriyasida keyingi davrlar doirasida ham o‘z ta’sirini o‘tkaza oladigan klassik libos to‘plamlari sifatida keltirish mushkul. Ularga asosan an’anaviy matolar hamda milliy libos elementlarining zamonaviy kostyum shakllari asosidagi interpretatsiyasiga doir izlanishlar sifatida qarash mumkin.

Ma’lumki, XXI asr boshlarida dunyoda ro‘y bergen ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy jahbaldardagi taraqqiyot barcha sohalarda bo‘lganidek dizayn sohalarida ham bir qator an’anaviy va zamonaviy loyihalash tendensiyalari asosidagi yangi g‘oya va konsepsiylar shakllanishiga zamin yaratdi. E’tiborli shundaki, aynan ana shu davrlarda dizaynga kiritilgan ijodiy usulblar va ularga doir ilmiy nazariyalar hozirgi kunga qadar moda sanoati rivoji va yutuqlarini belgilab kelayotgan tendensiyalar sifatida o‘z ahamiyatini tobora oshirib kelmoqda. Mazkur davrlarda o‘z faoliyatni olib borgan mashhur dizaynerlar ijodiy konsepsiylarini asosan an’anaviy va zamonaviy libos loyihalash belgilari orqali shakllantirilgani e’tiborga molik. Bu jarayonda ayniqsa taniqli yapon modelerlari ijodi alohida o‘ringa ega. Ular yaratgan kolleksiylaridagi har bir model avvalo milliy kostyum loyihalash an’analari bilan yo‘g‘rilganligi bilan tahsinga loyiq. Bu esa o‘z navbatida yaratilgan libos dizayni mahsulotlarining iste’molchilar uchun nafaqat milliy mentalitet an’analari, hamda ijtimoiy identifikasiya belgisi sifatida balki, insonlar ichki kechinmalari va qiziqishlarining ular kiygan liboslarda o‘z aksini topishi zarur degan qarashlarga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir.

Shuni faxri bilan ta’kidlash lozimki, yurtimiz mustaqillikni qo‘lga kirtgach, milliy libos elementlaridan zamonaviy kostyum kolleksiylarini uchun ijodiy manba sifatida yondoshishga qaratilgan amaliy jarayonlar doirasida faoliyat olib borayotgan dizaynerlar ijodiga keng imkoniyatlarni ochib berildi. Jumladan, Oliy va o‘rtalik maxsus o‘quv yurtlarida Libos dizayni ixtisosligi bo‘yicha ta’lim tizimlarini yo‘lga qo‘yilishi milliy madaniyatimiz komponenti bo‘lgan o‘zbek milliy kostumi an’analarning zamonaviy liboslarni loyihalashga doir tadqiqotlar uchun muhim ilmiy va ijodiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xususan, bu jarayonlarda mutaxassis va yosh kadrlarning libos loyihalash tendensiyalarida aktual hisoblangan muammollarning quyidagi jihatlariga ilmiy va amaliy taraflama chuqur va mantiq doirasida yondoshishlari talab etilmoqda:

- kundalik va oqshom liboslari, dam olish uchun kiyiladigan liboslar bilan ish kiyimlari, kasbiy faoliyat davomida kiyiladigan liboslar va maishiy liboslarni loyihalash jarayonlarida ularning har biriga qo‘yiladigan qat’iy talablarning yo‘qolishi oqibatida yaratilgan yangi konseptual asosga ega bo‘lgan kostyum kolleksiylarini shakllantirilishi;

- erkaklar kostyumidagi elementlarni ayollar liboslarda qo‘llanilishi, yoki aksincha, ayollar liboslari elementlarini erkaklar kostyumida qo‘llash;

- kundalik liboslar loyihalash uchun foydalilanidigan tvid, flanel, trikotaj gazlamalarini oqshom liboslarda foydalanish ham moda tendensiyalariga kiritilgan so‘nggi yangiliklar sifatida baholash mumkin.

Liboslardan dizayni ta’limida moda tendensiyalarining o‘rni, uning yurtimiz Oliy va o‘rtalik maxsus o‘quv yurtlarida tahlisil olayotgan talabalar tomonidan yaratilayotgan libos kolleksiylarida ahamiyatli bo‘lgan jihatlarini yoritishga qaratilgan mazkur maqolaga doir ilmiy xulosalar sifatida shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda zamonaviy moda sanoati doirasidagi libos loyihalash tendensiyalari o‘zida ko‘plab uslub va uslubiy yo‘nalishlarni qamrab olgan holda quyidagi mutaxassisliklar doirasida olib borilgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniyat sohalariga oid talab va takliflar asosidagi rivojlanish strategiyalari orqali shakllantiriladigan murakkab mexanizm hisoblanadi. Xususan ularga:

- dizaynerlar, konstrukturlar, texnologlar, gazlama, furnitura va aksessuarlar ishlab chiqarish sohasiga oid mutaxassislar;

- moda tahlilchilari - bayerlar, moda jurnallari bosh muharrirrulari, merchendayzerlar, taniqli moda uylari uchun kelgusi mavsumlarda urfga kirishi kutilayotgan moda tendensiyalarini aniqlab beruvchi moda analitiklarining nazariy tadqiqotlari;

- moda sohasiga oid davriy nashrlar - “Vogue”, “Cosmopolitan”, “Elle” va boshqa ko‘plab zamonaviy moda tendensiyalarini yoritishga oid taniqli davriy nashrlar;

- internet manbalari mutaxassislarini kiritish mumkin.

“Mazkur yo‘nalishlardagi so‘nggi tadqiqot natijalari XXI asrning qariyb 15 yilliklari davomida moda olamida demokratik tamoyillar rivoji davom etayotgani, bu esa barcha uchun bir turdag'i qiyofaning mavjud emasligi, hamda libos maqsadlariga doir aniq talablarning chegaralanmayotgani, kostyumdagi rang, shakl va mato xususiyatlarini o‘zaro bog‘liq holda shakllantirish zaruviyatini yo‘qolib borayotgani kabi o‘ziga xosliklar bilan ko‘zga tashlanmoqda”[7].

Mazkur o‘ziga xosliklar moda ixlosmandari uchun moda tendensiyalari doirasida erkin fikrlash, ulardagi yangiliklarga individual yondoshish imkoniyatini berayotgani bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga so‘nggi yillarda insonlar hayot tarzlariga tezlik bilan kirib kelayotgan informatsion dasturiy ta’minot programmalari hamda bu boradagi zamonaviy texnologiyalar ham libos dizayni ta’lim jarayonlarining rivojlanish mexanizmlarida ko‘zga tashlanayotgan asosiy omillar sifatida keltirish mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, o‘tgan davrlar moda sanoatidagi kostyum tendensiyalari va moda namoyondalarining libos loyihalash doirasidagi ijodiy konsepsiylarining ilmiy – ijodiy aspektlari tahlili hozirgi kunda mazkur soha doirasida tahlisil olayotgan talabalar va yosh dizaynerlar uchun ijodiy manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlarga yondoshish malakasining to‘g‘ri shakllantirilishi bo‘lajak libos dizaynerlarining moda olamida bir necha davrlar mobaynida urfdan chiqmaydigan libos shakllari va ularga doir ijodiy yo‘nalishlarni yaratishlariga zamin bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR

1. Gofman A.B. Sennostnie komponenti modi Tekst. // Trudi VNIITE, Ser. Texnicheskaya estetika. — 1980. Vip.27. — S. 60 — 74.
2. Yermilova Ye.Yu. Kostyum konstruktivizma: novie metodi proyektirovaniya odejdi Tekst. // Problemi dizayna kostyuma i puti ix issledovaniya: Sb. nauch. tr. kaf. «Dizayn kostyuma» 1997. - S. 78 - 102.
3. Berdnik T. O. Arxitektonika kostyuma: (Sotsiokultur. dinamika) Tekst. : avtoref. dis. . filos. nauk / Berdnik T. O. — Rostov n/D, 2004.-28 s.
4. Bart R.A. Sistema modi. Tekst. Stati po semiotike kulturi / per. S. N. Zenkina. M.: Izdatelstvo im. Sabashnikovix, 2004. 512 ye.5: Bobrinskaya Ye. A. Konseptualizm : Albom. / Ye. A. Bobrinskaya. M. : Galart, 1994. - 216 s.
5. Zeling Sh.V. Moda Vek modelerov 1900 1999 Tekst. / Sharlotta Zeling.
6. Zirina M. A. Sovremennie aspekti proyektnoy deyatelnosti dizaynera Tekst. // Moda i dizayn: istoricheskiy opit novie texnologii.
7. <https://studopedia.ru>. Ponyatiye dizayn konsepsii odejdi. Podxodi k yee rarabotke. 7.Shverova K.I. Konsepsiya i metodi proyektirovaniya v dizayne odejdi. M.: 2012, 42 s.Golosovskaya A. Moda i modeleri. —M.: Astrel, 2011, 14 s.

